



Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020 – yil yanvar – iyun

2020–yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi **48,7 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **16,1** birlikni tashkil qildi.

2020–yilning yanvar – iyunida 4,0mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **76,3** foizga kam.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 1451 ta, sanoatda 738 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 713 ta, qurilishda 315 ta, yashash va ovqatlanishda 289 ta, tashish va saqlashda 111 ta tashkil etilgan.
Булар русчада йўқ

2020 – yil yanvar – iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Savdo
36,4 %



Sanoat
18,5 %



Qurilish
7,9 %



Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi
17,9 %



Yashash va
ovqatlanish bo'yicha
xizmatlar
7,2 %




Tashish va saqlash
2,8 %

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019 – y.	2020 – y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar	birlikda	29284	36030	6746
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	5229	3991	-1238
Kichik tadbirkorlikning ulushlari:				
YaHM	%	49,4	48,7	-0,7
Sanoat	%	25,5	19,2	-6,3
Qishloq, o'rmon va baliq	%	95,0	94,6	-0,4
Investitsiya	%	31,8	39,6	7,8
Qurilish	%	87,6	79,0	-8,6
Savdo	%	16,8	83,2	66,4
Xizmatlar	%	71,9	69,2	-2,7
Yuk tashish	%	131,5	26,5	-30,2
Yuk aylanmasi	%	138,4	59,0	31,7
Yo'lovchi tashish	%	101,0	92,6	-8,3
Yo'lovchi aylanmasi	%	92,4	96,9	0,5
Eksport	%	21,1	24,1	3,0
Import	%	46,2	39,2	-7



2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da




2020 – yilning yanvar – iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar bo'yicha eng ko'pi Zangiota tumanida – 458 ta, Qibray tumanida – 326 ta, O'rtachirchiq tumanida – 275 ta, Toshkent tumanida – 249 ta, Yangiyo'l tumanida – 214 ta va Bo'stonliq viloyatida – 208 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Ohangaron tumanida – 91 tani tashkil etgan.

Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

	2019 – yil yanvar – iyun	2020 – yil yanvar – iyun	(+;-)
Toshkent viloyati	5229	3991	-1238
shaharlar:			
Nurafshon	133	125	-8
Olmalik	198	132	-66
Angren	367	179	-188
Bekobod	189	111	-78
Ohangaron	88	91	3
Chirchiq	277	183	-94
Yangiyo'l	143	123	-20
tumanlar:			
Oqqo'rg'on	145	145	0
Ohangaron	103	127	24
Bekobod	161	112	-49
Bo'stonliq	254	208	-46
Bo'ka	180	147	-33
Qo'yichirchiq	134	207	73
Zangiota tumani	782	458	-324
Yuqorichirchiq	223	194	-29
Qibray	432	326	-106
Parkent	208	155	-53
Piskent	99	134	35
O'rtachirchiq	285	275	-10
Chinoz	155	96	-59
Yangiyo'l	313	214	-99
Toshkent	360	249	-111




2020 – yil yanvar – iyun holatiga ko'ra yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da



2020 - yilning yanvar - iyun oylarida tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Zangiota tumani - 11,5 %, Qibray tumani – 8,2 %, O'rtachirchiq tumani - 6,9 %, Toshkent tumani - 6,2 %, Yangiyo'l tumani - 5,4 %, Bo'stonliq tumani - 5,2 %, Quyichirchiq tumani - 5,2 %, Yuqorichirchiq tumani - 4,9 %, Chirchiq shahri - 4,6 % ga tegishli.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar- iyun	2020 - yil yanvar- iyun	(+;-)
Jami	5229	3991	-1238
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	526	713	187
Sanoat	1160	738	-422
Qurilish	517	315	-202
Savdo	1973	1451	-522
Tashish va saqlash	204	111	-93
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	427	289	-138
Axborot va aloqa	49	46	-3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	50	50	0
Boshqa faoliyat turlari	323	278	-45





Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda

	2019 - yil yanvar-iyun	2020 - yil yanvar-iyun	Farqi (+;-)
Zangiota tumani	782	458	-329
Qibray tumani	432	326	-106
O'rtachirchiq tumani	285	275	-10
Toshkent tumani	360	249	-111
Yangiyo'l tumani	313	214	-99
Bo'stonliq tumani	254	208	-46
Quyichirchiq tumani	134	207	70
Yuqorichirchiq tumani	223	194	-29
Chirchiq shahri	277	183	-94
Angren shahri	367	179	-188


2020 – yilning yanvar – iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Zangiota tumanida – 458 taga yetdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda





Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - iyun holatiga ko'ra*




2020 – yilning yanvar–iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Zangiota tumanida 21,6 birlik, Ohangaron shahrida 21,6 birlik, Nurafshon shahrida 19,2 birlik. Yangiyo'l shahrida 18,2 birlik, Qibray tumanida 16,6 birlik, Toshkent tumanida 14,7 birlik, O'rtachirchiq tumanida 14,1 birlikni tashkil etgan. Bekobod tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 5,8 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni* (har 1000 aholiga, birlikda)



2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Ohangaron shahrida 21,6 birlik, Zangiota tumanida 21,6 birlik, Nurafshon shahrida 19,2 birlik, Yangiyo'l shahrida 18,2 birlik, Qibray tumanida 16,6 birlik, Toshkent tumanida 14,7 birlik, Yuqorichirchiq tumanida esa 14,5 birlikni tashkil etdi.

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




Bundan ko'rinib turibdiki, Ohangaron shahrida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Bekobod shahrida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxonalar soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish Dinamikasi, yanvar - iyun holatiga ko'ra, % da


2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 48,7 % ni tashkil qildi. (2019 yilning yanvar - iyunida 49,4 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.





Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikni tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Toshkent viloyati	19,2	79	69,2	39,6
<i>shaharlar:</i>				
Nurafshon sh.	11,7	95,2	12,8	14,8
Olmaliq sh.	0,7	60,3	84,1	2,7
Angren sh.	19,5	78,6	91,8	71,1
Bekobod sh.	2,4	63,2	94	57,3
Ohangaron sh.	41,3	80,4	92,4	36,6
Chirchiq sh.	11	80,5	72,6	37
Yangiyo'l sh.	35,8	64	95,2	46,5
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo'rg'on tumani	21,9	94,3	98,4	36,2
Ohangaron tumani	41,3	77	96,2	89,6
Bekobod tumani	3,5	80,1	96,9	63,8
Bo'stonliq tumani	21,5	84,8	79,1	29,7

Bo'ka tumani	21,2	95,3	97,9	63,1
Quyichirchiq tumani	55,1	85,9	97,3	70,8
Zangiota tumani	28,2	69,3	89,4	28,6
Yuqorichirchiq tumani	51,7	82,8	92,7	48,8
Qibray tumani	20,3	70,1	56	52,9
Parkent tumani	52,1	85,4	96,3	91
Piskent tumani	52,1	93,3	1,5	60,5
O'rtachirchiq tumani	51,1	71,1	2,2	58,4
Chinoz tumani	40	82,8	3	79,9
Yangiyo'l tumani	35,8	83,2	2,9	73,4
Toshkent tumani	51,4	93,5	6,4	85,8

Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-


Quyichirchiq t (55,1 %),
Parkent t (52,1 %),
Piskent t (52,1 %),
Yuqorichirchiq t (51,7 %),
Toshkent t (51,4 %) va
O'rtachirchiq t (51,1 %)

Qurilishda-


Bo'ka t (95,3 %),
Nurafshon sh (95,2 %),
Oqqo'rg'on t (94,3 %),
Toshkent t (93,5 %),
Piskent t (93,3 %) va
Quyichirchiq t (85,9 %)

Xizmatlarda-

Oqqo'rg'on t (98,4 %),
Bo'ka t (97,9 %),
Quyichirchiq t (97,3 %),
Bekobod t (96,9%),
Parkent t (96,3 %) va
Ohangaron t (96,2%)




Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 2020 yilning yanvar-iyunida






Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining, jami eksportdagi ulushi, % da



2020 – yil yanvar – iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Bo'ka tumanida – 100%, Parkent tumanida 99,8 %, Bekabod tumanida – 99,8 %, Quyichirchiq tumanida – 99,6 %, Ohangaron tumanida – 99,2 %, O'rtachirchiq tumanida – 98,2 %, Oqqo'rg'on tumanida – 98,1 %ni, eng past ko'rsatkich Olmaliq shahrida – 0,4 % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da



2020 – yil yanvar – iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Parkent tumanida – 100 %, Bo'ka tumanida – 100 %, Oqqo'rg'on tumanida – 99,7 %, Bekobod tumanida – 96,8 %, Yangiyo'l shahrida– 95,4 %, Yuqorichirchiq tumanida – 92,9 %, O'rtachirchiq tumanida – 92,3%. Eng past ko'rsatkich Bekobod shahrida – 0,1 % ni tashkil etdi.



2020 – yilning yanvar – martida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Zangiota tumani (838,5 mlrd. so'm), Ohangaron shahri (817,7 mlrd. So'm), Angren shahrida (465,3 mlrd. so'm), Qibray tumani (432,8 mlrd. so'm) va Toshkent tumanida (373,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Bekobod tumanida (5,4 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






2020 – yil yanvar – iyun holatiga ko'ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da



Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bo'ka tumani (100,0%), Parkent tumani (86,0%), O'rtachirchiq tumani (81,8%), Quyichirchiq tumani (69,5%), Chinoz tumani (68,3%), Piskent tumani (65,2%), Toshkent tumani (63,8%), Ohangaron tumani (62,7%), Yuqorichirchiq tumani (60%), va Ohangaron shahri (58,8%), tumanlari tashkil etdi. Olmaliq shahrida (1,2%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o`shish sur`ati



Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko`p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Zangiota tumani - 883,6 mlrd. so`m (2019 yilning yanvar – iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 95,3%), Olmaliq shahri 697,9 mlrd. so`m (85,4%), Yangiyo'l shahri 631 mlrd. so`m (97,8%) va Ohangaron tumani 118,1 mlrd. so`m (74,6%) hissasiga to`g`ri keladi.



2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o`sinh sur`ati




Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko`p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Zangiota tumani - 264,6 mlrd. so`m (2019 yilning yanvar – iyunuga nisbatan o`sinh sur`ati 69,3%), Qibray tumani 184,4 mlrd. so`m (70,1%), Toshkent tumani 162,6 mlrd. so`m (93,5%), Yuqorichirchiq tumani 161,2 mlrd. so`m (85,4%) 85,4 hamda Yangiyo'l shahrida 43,9 mlrd. so`m (64,0%) qayd etildi.





2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o`sinh sur`ati




Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko`p xizmatlar hajmi Zangiota tumani - 557,6 mlrd. so`m (2019 yilning yanvar – iyuniga nisbatan o`sinh sur`ati (89,4%), Toshkent tumani 437,0 mlrd. so`m (92,1%), Qibray tumani 399 mlrd. (56%), Bo`ka tumani 97,5 mlrd so`m (97,9) hissasiga to`g`ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020 – yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **1533** ta respondentlar ishtirok etdi.

2020 – yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi* , % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 7,4 % (114 ta.), sanoatda – 20,3 % (311 ta), qurilishda – 9,9% (152 ta), savdoda – 33,0% (506 ta), xizmatlar sohasida – 29,4 % (450 ta) ni tashkil etdi.


* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.



2020 – yil II chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020 – yil II chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020 – yilning II choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qoniqarli deb baholangan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Joriy yilning II choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 6,9 punktga, xizmatlar sohasi 22,7 punktga, sanoat sohasida 11,4punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholangan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 – 2020 – yillarda II chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020 – yilning II choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishingon korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, xizmatlar sohasi 0,1 punktga, savdo sohasi 1,2 punktga, sanoat korxonalari 1,9 punktga, qurilish korxonalari 4,5 punktga, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishingon korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 3,2 punktga, sanoat sohasida 2,3 punktga, savdoda 1,6 punktga, qurilishda 7,2 punktga oshdi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarining 2019 – 2020 – yillarda II chorakdagi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi,% da






2020 – yilning II choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 260 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 48 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 18,5% i), qurilish – 18 ta (6,9% i), savdo – 99 ta (38,1% i) va xizmatlar – 53 ta (20,4%), qishloq, o'rmon va baliq ho'jaligi – 42 ta (16,2%).

2020 – yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da






2020 – yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxon va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020 – yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxon va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2020 – yilning II choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligidan tashqari deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning II choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan qurilish va savdo faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning II choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qurilish sohasida 3,3 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 0,8 punktga, iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.



2019 – 2020 – yillar II chorakdagi yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuv natijalariga ko'ra, 2020 – yilning II choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi sanoatdan tashqari qolgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 12,1 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida 7,8 punktga, savdoda 0,9 punktga oshdi, sanoatda 8,9 qurilish korxonalarida esa 8,4 punktga kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 5,7 punktga, savdoda 3,0 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida 2,4 punktga, sanoat 2,1 punktga, qurilish 11,1 punktga ko'paydi.

2019 – 2020 – yil II choragida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash,% da

